

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.  
International online conference.**

Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

**AHMAD YASSAVIY IJODIDA TAVBA TALQINI**

**Umurova Nigina Raximovna**

BuxDU doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarida tavba tushunchasining badiiy talqini, uning tasavvufdagi o`rni tahlil qilinadi. Tavbaning mohiyati, mazmuni muallif she`laridagi badiiy ifodasi xususida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so`zlar.** Hikmat, tasavvuf, tavba, nafs, tariqat, zuhd.

**Abstract.** This article analyzes the artistic interpretation of the concept of repentance in the wisdom of Ahmad Yassavi, its place in Sufism. The essence and content of repentance are considered in the artistic expression of the author's poems.

**Key words.** Wisdom, Sufism, repentance, nafs, tariqat, asceticism.

**Абстрактный.** В данной статье анализируется художественная интерпретация понятия покаяния в мудрости Ахмеда Яссави, его место в суфизме. Сущность и значение покаяния рассматриваются в художественном выражении стихотворений автора.

**Ключевые слова.** Мудрость, Суфизм, покаяние, желание, секта, аскетизм.

Ahmad Yassaviy tasavvuf olamidagina emas, butun dunyo adabiyotida ezgulikka chorlovchi hikmatlari bilan tanilgan so`fiy shoirdir. Muallif hikmatlarida tasavvufiy tushunchalarning talqini shoirona go`zal badiiy ifodasini topgan. Xususan, tavba haqida hikmatlar alohida o`ringa ega. "Tavba" so`zining qaytmoq, pushaymon bo`lmoq, gunohlarni tark etib Haqqa yuz burmoq, kelajakda gunohni takrorlamaslikka azm etmoq kabi ma'nolari bor. Imom G'azzoliyga ko`ra, tavba ilm, hol, va fe'l kabi navbat bilan bir-birini taqozo etuvchi uch narsaning birlashuvidan paydo bo`ladigan o`zgarmas ilohiy sunnatdir. Bu bosqichlarning har biri o`zidan keyingi bosqich uchun zaruratdir. Chunki Alloh taolonning mulk va malakutga joriy etgan qonunidagi uzlucksizlik shuni taqozo qiladi. Gunohlar bois paydo bo`lib, banda bilan uning suyukli narsalari orasini to`sadigan ulkan zararni anglash ilmdir. Bu ulkan zararni to`la anglagan kishi o`z qalbiga g`olib bo`ladi. Bu anglash suyukli narsasini boy bergen qalbda alam-og`riq paydo qiladi. Qalbda yo`qotish hissi ortgani sayin alamning shiddati ham kuchayadi. Mahbubini o`zining bir yomon fe`li sabab boy bergani uchun qalb afsus chekadi. Qalbning bu og`rig`i nadomat deyiladi. Og`riq ichkarini butunlay egallab olganidan so`ng, qalbda qasd deb atalgan o`zgacha bir holat namoyon bo`ladi (qasd – gunohni tark etishni maqsad qilish, shu maqsad tomon qadam tashlash). Tavba shunday og`riqki, u bekor o`tayotgan umrni his qilish, Allohnинг g`azabi ostida zoe bo`layotgan bebaho ne'mat – o`tgan va o`tayotgan kunlarni o`ylab, qonli yoshlar to`kishdir. Darhaqiqat, o`tgan xatodan pushaymon bo`lib, g`amga botish musulmon uchun vojibdir. Bu hol tavbaning ruhi, o`nglanish u bilan kamoliga yetadi. Tavbaning shartlari haqida ulamolar ham mulohaza bildirishgan. Olimlar bunday deganlar: "Tavbaning uchta sharti bor: Gunohdan to`xtash, pushaymon bo`lish va unga qaytmaslikka

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 23<sup>rd</sup> January-2025



ahd qilish". Ba'zi olimlar esa: "Tavbada sodir etilgan gunohdan pushaymon bo'lishning o'zi yetarlidir. Zero, bu pushaymonlik gunohdan uzilishni va qaytib uni qilmaslikka ahd qilishni taqozo etadi. Bu ikkisi pushaymonlikdan paydo bo'ladi, shuning uchun ham: "Pushaymonlik tavbadir", deyishgan.

Egri yo'lg'a yurdum, doim xato qildim,  
Emdi bildim, o'z jonima jafo qildim.  
Dargohinga yaqom tutub yano keldim,  
Lutf aylabon tavbam qabul etormukin? (41b)

Ahmad Yassaviy o'zining hikmatlarida odob-axloq,diniy- falsafiy hamda shariat va tariqat qoidalari she'riy tarzda o'zining yorqin aksini ko'rsatgan.Yuqorida keltirilgan hikmatda ijodkor xato qilgan egri yo'ldan yurgan insonning tavbasini tasvirlagan.Unda haqiqatdan ham obraz o'zining gunohlarini, xatolarini hamda doim egri yo'ldan yurganini tan olgan.Bu gunohlar orqali faqat o'z joniga azob bergenini anglab yetgan.Va o'zi yana Alloh dargohiga gunohlarini mag'firat qilishini so'rab kelganligi aytilgan Hamda so'nggi misrada tajohil-ul orif san'ati orqali uning gunohlari kechiriladimi yoki yo'qmi shuni so'ragan.

Erga ilging bergil, joning fido qilg'il,  
Yurma yiroq, bo'lma nohaq, beri kelgil,  
O'lmak haqdur, o'lmas burun tavba qilg'il,  
Ko'b kishilar tavbasizin o'tmadimu? (45b)

Ushbu hikmatda ijodkor adib tavba qilishning ahamiyati haqida so'z yuritgan.Jumladan birinchi baytda erga (xalqqa) ilging (qo'ling) bergil, joning fido qil deyish orqali vatan uchun,xalq uchun joningni ham fido qil, xalqdan yiroqda yurma ularning dardini òzingning darding deb bil,nohaq bòlma doim ularga yaqin bo'lgan. O'lim haqdur, biz bandalarni Alloh bu dunyoga keltiribdimi albatta bir kun qaytarib oladi.Shuning uchun har bir inson òlimini bilgan holda bu foniy dunyoda ham yaxshilik qilib, boqiy dunyo tadorigini ko'rishi kerak.So'nggi misrada esa qilgan gunohlariga tavba qilishi kerakligi aytilgan.Undan tashqari tajohil ul orif san'ati orqali kishilarning tavbasi ötadimi deb so'rangan.

So'ngso'z o'rnida shuni aytish joizki, adib hikmatlaridagi mavzular olami keng va rang- barangdir. Ayniqsa hikmatlarda tilga olinayotgan nafs,taqvo,tavba,zuhd,faqr va toat va ibodat hamda ko'plab axloqiy masalalarning qalamga olinishi ahmiyatlidir.Qolaversa, yuqorida tahlil qilganimiz tavba masalasidagi hikmatlarda ham insonlarning gunohlari uchun faqat Allohdan kechirim so'rashi kerakligi hamda Alloh kechiruvchi va rahmdil zot ekanligi aytib o'tilgan.Bundan tashqari Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash,yoshlikdan riyozat yo'liga kirish,hayotni qadriga yetish kabi chorlovlar aks ettirilgan.

Demak, har bir insonga hayot atalmish buyuk ne'mat Alloh taolo tomonidan berilibdiki, uni qadriga yetish, har bir lahzasidan unumli foydalanishimiz, hayotimizni savob ishlar bilan yaxshiliklar bilan o'tkazishimiz kerak.

Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. Тошкент: “Мовароуннахр”. 2004.
2. Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар.-Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт va san'yat nashriёti, 1991.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Abdulla Codiriy nomidagi xalq merosi nashriёti, 1994.
5. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Tavhid asrori.- Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт va san'yat hamda “Ўзбекистон” nashriётłari, 1999.
6. Маҳмуд Асьад Жўшон. Зикруллоҳнинг фазилатлари. Тошкент: “Сано-стандарт”. 2019.
7. Сиёев Сайдулла. Яссавийнинг сўнгги сафари. Тошкент:”Чўлпон”. 1994
8. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: ACH, 1991.
9. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Maʼnaviyat, 1998.
10. Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 45-49.
11. Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.
12. Raximovna, Umurova Nigina. "“Beshinchi tog ” asarida Sharq falsafasi." Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.
13. Raximovna N. U. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TASAVVUFUY TUSHUNCHALAR TALQINI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 2. – №. 19. – C. 57-63.